



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN HOKIMINING**  
**FARMOYISHI**

Angor tumani, At-Termiziy ko‘chasi 58-uy. 190200, tel.: (+99876) 312-20-12, [angor@exat.uz](mailto:angor@exat.uz),

2022 - yil 30 - aprel

49-8-109-F/22

Angor tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 17 sentyabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-445-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 dekabrda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4904-sonli Farmonining ijrosini ta‘minlashda sektorlar va sohaviy tashkilotlar rahbarlari mas‘uliyatini oshirish, “mahallabay” ishlash tizimini natijadorligini yaxshilash hamda aholi muammolarini tizimli hal etish maqsadida**

1. Murojaatlar bilan ishlashni samarali tashkil etish va “mahallabay” ishlash tizimi natijadorligini yaxshilash bo‘yicha tuman Ishchi guruhi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman Ishchi guruhi:

- tumandagi mahalla raislari, mahalladagi tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman hokimining yordamchisi, mahalladagi yoshlar etakchisi va xotin-qizlar faoli, ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorlari (keyingi o‘rinlarda – mahalladagi mas‘ullar deb ataladi), sektor shtabi a‘zolari, tumandagi sohaviy tashkilotlar rahbarlari, mahalliy Kengashlar deputatlari tomonidan aholi muammolari va murojaatlari bilan ishlashga mas‘uliyat bilan yondashish, muomala madaniyatini tubdan yaxshilashga qaratilgan tezkor tadbirlar belgilash;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nomiga yo‘llangan jamoaviy murojaatlar, bir shaxs tomonidan ko‘p marotaba yoki takroriy murojaat qilgan, masalasi hozirgi kunga qadar hal bo‘lmay kelayotgan norozi kayfiyatidagi fuqarolar bilan ularning masalasini mahalla fuqarolar yig‘inlari binolarida ko‘rib chiqish va hal qilish, ularni roziligini olish yuzasidan manzilli ishlarni sektor shtabi a‘zolari, mahalladagi mas‘ullar va deputatlarni jalb qilgan holda ta‘minlash, qayta-qayta murojaat etuvchilar bilan o‘tkazilgan suhbat jarayonini foto va videoga olish;

- qayta-qayta murojaat etuvchilar bilan uchrashuv (qabul)dan keyin qoidaga ko‘ra Ishchi guruh a‘zolari mahalladagi infratuzilma holati, hududda aholi uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishishi, mahallada yashovchi yakka-yolg‘iz, nogironligi bo‘lgan shaxslar, ehtiyojmand, daftarlarga kiritilgan oilalar xonadonlariga kirib, ularning turmush tarzi bilan tanishishi, holidan

xabar olishi, sayyor qabullar tashkil etilishi;

- aholini qiynab kelayotgan asosiy masalalar, jumladan moddiy yordam, ijtimoiy nafaqalar (2 yosh, 18 yosh bolalar nafaqasi), kommunal masalalar (elektr energiya, gaz, issiqlik ta'minoti, XUJMSH faoliyati, ichki yo'llar), keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish, aholiga dori-darmon, tibbiy buyumlar, davolanishga order ajratish masalalari, aholi bandligini ta'minlash va kredit olish bilan bog'liq masalalarni "mahallabay" sayyor qabullar tashkil qilish orqali hal etish choralarini ko'rish;

- sud-huquq masalalariga oid (sud-tergov, mansabdor shaxslarning qarorlaridan norozilik, majburiy ijro, aliment va qarz summalarini undirish va boshqa) murojaatlar bo'yicha vakolatli huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlarini xulosalarini olishni tashkillashtirish;

- aholi uchun dolzarb muammolari mavjud bo'lgan mahallalarda, ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi nisbatan past bo'lgan og'ir hududlar hamda turli millat vakillari istiqomat qiladigan mahallalarda "xonadonbay" aholi muammolarini o'rganish va hal etish, ijtimoiy vaziyatni yaxshilash maqsadida mahalladagi mas'ullar bilan sektorlar shtabi a'zolari hamkorlikda ishlashi hamda tuman miqyosida hal qilinadigan muammolarni bartaraf etish bo'yicha ishlarni tizimli ravishda amalga oshirish, muddat va mablag' talab qiladigan masalalarni tegishli "yo'l xarita"lariga kiritish;

- hududda yashovchi aholining mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar etakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori hamda sektor shtabi a'zolarini shaxsan tanishi, ularning faoliyatiga mahalla faollari va jamoatchilikning munosabatini bilish;

- aholiga amalga oshirilayotgan davlat siyosati va islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish, mahallada kelgusida amalga oshiriladigan keng ko'lamli bunyodkorlik, qurilish-ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarini etkazish, ularning xabardorligini oshirish;

- Respublika va shahar miqyosida hal qilinadigan muammolar bo'yicha hal etishga mas'ul tegishli vazirlik va idoralarning tuzilmalariga, hududlarga murojaatlarni jo'natilishini hamda ijrosini nazorat qilinishini;

- Ishchi guruh faoliyati bo'yicha so'rovga ko'ra kunlik, haftalik, oylik tahliliy ma'lumotlarni viloyat hokimligiga va tuman xalq qabulxonasiga kiritilishini;

- Respublika darajasida hal etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabrda «Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi PF-29-son Farmoni talablari asosida hududlarga birlashtirilgan Respublika vakillariga taqdim etilishini ta'minlasin.

### 3. Tuman sektor rahbarlari:

- o'z sektorlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nomiga yo'llangan jamoaviy murojaatlar, bir shaxs tomonidan ko'p marotaba murojaat qilgan, masalasi hozirgi kunga qadar hal bo'lmay kelayotgan norozi kayfiyatidagi fuqarolar bilan ishlash bo'yicha ko'rilgan choralar natijalari yuzasidan tahliliy yig'ma jildlar yuritilsin;

- sektor shtablarida sektor shtabi a'zolari va mahalladagi mas'ullar ishtirokida har haftada murojaatlarni ko'rib chiqish hamda "yo'l xaritalari" ijrosini muhokama qilinsin.

4. Ishchi guruh tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va mavjud muammolar yuzasidan har oy yakuni bo'yicha Xalq deputatlari tuman Kengashida muhokama qilinishi belgilab o'tilsin.

5. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

**Hokim**



**SH.B.ABDULLAYEV**

Angor tuman hokimining  
2022 yil 30 apreldagi  
49-8-109-F/22-son farmoyishiga  
1-ilova

**Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni samarali tashkil etish va “mahallabay” ishlash tizimi natijadorligini yaxshilash bo‘yicha tuman**

**Ishchi guruhi**

<b>№</b>	<b>Familiya ismi va sharifi</b>	<b>Lavozimi</b>
1.	Sh.Abdullaev	- Tuman hokimi, <b>ishchi guruh rahbari</b>
2.	O‘.G‘afforov	- Tuman Xalq qabulxonasi mudiri, <b>ishchi guruh o‘rinbosari</b>
3.	S.Ramazanov	- Tuman prokurori, 2-sektor rahbari <b>ishchi guruh o‘rinbosari</b>
4.	S.Choriyev	- Tuman IIB boshlig‘i, 3-sektor rahbari <b>ishchi guruh o‘rinbosari</b>
5.	O.Muratov	- Tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i, 4-sektor rahbari <b>ishchi guruh o‘rinbosari</b>
6.	N.Xushmanova	-Tuman hokimligi devonxonasi etakchi mutaxassisi,Ishchi guruh mas’ul kotibi

**Ishchi guruh a‘zolari:**

7.	O.Mamayusupov	-Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari
8	R.Qulnazarov	- Tuman hokimining o‘rinbosari
9	J.Po‘latov	- Tuman hokimining o‘rinbosari
10	O.Umarov	- Tuman hokimining o‘rinbosari
11	M.Tog‘aev	- Tuman hokimining o‘rinbosari
12	Sh.Rajabova	- Tuman hokimining o‘rinbosari
13	I.Mustaramov	- Tahliliy-nazorat guruhi rahbari
14	R.Berdiev	- Tuman Adliya bo‘limi boshlig‘i
15	K.Xidirov	- Jinoyat ishlari bo‘yicha Angor tuman Sudi raisi
16	Sh.Mirzayev	- Tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i
17	A.Yuldashev	- Tuman Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi rahbari
18	D.Shanayev	- Tuman Yoshlar agentligi bo‘limi rahbari
19	Ch.Xalikov	- Tuman hokimligi huquqshunosi
20	Lavozimiga ko‘ra	- Mahalla fuqarolar yig‘ini raislari
21	Lavozimiga ko‘ra	- Mahalladagi tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman hokimining yordamchilari
22	Lavozimiga ko‘ra	- Mahalladagi yoshlar etakchilari
23	Lavozimiga ko‘ra	- Mahalladagi xotin-qizlar faoli

24 Lavozimiga ko'ra - Ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta)inspektorlari

Izoh:

- Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgandan uning o'rniga lavozimga tayinlangan xodim ishchi guruh a'zosi hisoblanadi;
- Ishchi guruhga zaruriyatga ko'ra boshqa tashkilot va idoralarning xodimlari jalb qilinishi mumkin.